

11-mavzu

:

**Madaniyat va
sivilizatsiya
mutanosibligi**

Режа:

- 1. Madaniyat tushunchasi.
- 2. Madaniyatning rivojlanish omillari va funksiyalari
- 3. Madaniyat to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlar

Madaniyat murakkab va serqirra tarixiy hodisa boʻlib, yuqorida aytilganidek, har bir fan oʻziga xos tarzda madaniyat tushunchasini yaratadi. Shu tufayli hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda uning 250 dan ortiq taʼrifi uchraydi.

Ko'pgina xalqlarda madaniyat tushunchasi o'rnida lotin tilidan qabul qilingan cultura atamasi ishlatiladi. Cultura deganda dastlab tabiat obyektlarining inson mehnat faoliyatining natijasida o'zgarishi, boshqacha qilib aytganda, parvarish qilish, ishlov berish, dehqonchilik bilan shug'ullanish tushunilgan. Bu atamani yuqoridagi ma'noda ishlatish hozir ham uchraydi. Masalan, rus tilida «agrokultura» so'zida ana shunday mazmun ifodalanadi. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, lotincha atamani qabul qilgan xalqlarda ham keyingi vaqtlarda bu tushunchaga kengroq mazmun berilib, ma'rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida qo'llanila boshlangan.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkurning keyingi bosqichlarida madaniyatni deyarli barcha xalqlarda, garchi turli shakllarda bo‘lsa-da, mohiyat e’tibori bilan aynan ma’naviy faoliyat sohasi sifatida tushunish ustuvor bo‘lib keldi. Faqat XIX asr o‘rtalaridagina madaniyat tushunchasi kengroq ma’noda, ya’ni inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalarga nisbatan ishlatila boshlandi. Bunday holatda madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan «ikkinchi tabiat» ma’nosini kasb etadi. Ayni paytda, ushbu qarash madaniyatni inson faoliyatining ma’lum bir sohasi bilan bog‘lab qo‘yish kerak emas, chunki inson, uning faoliyati, insonlararo munosabat bor joyda madaniyat ham mavjud, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Lekin madaniyatni «inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalar» deb tushunish ham yetarli va toʻliq emas. Nega? Birinchidan, bunday yondashuv uni insondan tashqarida mavjud qandaydir hodisa sifatida tushunishga olib keladi. Ikkinchidan, madaniyat va jamiyat tushunchalarining nisbati oydinlashmaydi.

Madaniyatga turlicha qarashlarning mohiyati to‘g‘risida keyingi sahifalarda atroflicha to‘xtab o‘tilishini nazarda tutib, unga quyidagicha ta’rif berish bilan chegaralanish mumkin, deb hisoblaymiz: Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma’naviy qadriyatlar bo‘lib, o‘z navbatida shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisadir.

Madaniyatshunoslik madaniyatni ilmiy jihatdan tushuntiradi, uning umumtarixiy mazmuni va ma'nosini belgilab, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimida tutgan o'rnini va mavqeini asoslaydi.

Madaniyat hodisasini tavsiflashda juda rang-barang izohlarga duch kelishimiz mumkin. Bular madaniyat:

— inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisi;

sun'iy, ya'ni ikkinchi tabiat;

— inson faoliyati majmui;

— faoliyat vositalari yig'indisi;

— ijodiy faoliyat;

— ijodiy faoliyat mahsuli;

— umuman jamiyat;

— jamiyatning ma'naviy holati;

— jamiyatning ma'naviy hayoti;

— jamiyatning sifati;

— inson sifatlari;

— shartli belgilar tizimi yig'indisi va boshqalar.